



## Korxonalar va tashkilotlar

(2019-yil 1-may holatiga)

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

Ro'yxatdan  
o'tgan

12682  
ta

2019-yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 1543 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 724 taga ko'pdir.

Faoliyat  
ko'rsatayotgan

12563  
ta

Natijada, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2515 ta (25,0 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 12563 tani tashkil etgan.

Yangi tashkil  
etilganlar

1543  
ta

Mamlakatimizda qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik sub'ektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiriq qilinmoqda. Bu esa aholi hamda xorijiy sarmoyadorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)


(2019-yil 1-may holatiga)

12682 tani  
tashkil etdi

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar  
soni, birlikda



22,6 %




O'tgan yilning shu  
davriga nisbatan  
o'sish sur'ati

2019-yilning 1-may holatiga 12682 ta korxonalar va tashkilotlar ro'yxatdan o'tgan bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 22,6 foizga o'sgan, iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jamiga nisbatan 21,1 % savdo, 16,3 % sanoat, 8,6 % qurilish, 11,0 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 8,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, 4,0 % tashish va saqlash, 1,9 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, 1,2 % axborot va aloqa hamda 27,9 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

# Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha (2672 ta) savdo, (2069 ta) sanoat, (1095 ta) qurilish, (1400 ta) qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, (1009 ta) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar, (510 ta) tashish va saqlash, (235 ta) sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar, (148 ta) axborot va aloqa hamda (3544 ta) boshqa faoliyat turlariga to'g'ri kelmoqda.

# Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 12563 tani tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga solishtirilganda 2515 ta (25,0 %) ga o'sgan.

## Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar ulushi, %


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)




Savdo




Sanoat




Qurilish



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar




Tashish va saqlash



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



Axborot va aloqa




Boshqa turlar



# Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni, birlikda

(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)




Hududlar kesimida qaralganda, faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni eng ko'pi Navoiy shahri (3568 ta), Karmana (2142 ta), Qiziltepa (1401 ta) va Xatirchi (1285 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Uchquduq (512 ta), Konimex (416 ta) hamda Tomdi (218 ta) tumanlarida korxonalar soni kamligini kuzatish mumkin.

# Yangi tashkil etilgan

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2019-yil yanvar-aprel oylarida 1543 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2018-yilning shu davriga nisbatan 724 taga ko'pdir.

Yangi tashkil etilgan korxonalarining o'sish surati, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida, eng ko'p savdo (416 ta), sanoat (348 ta), qurilish (141 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (155 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa (16 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar (17 ta), tashish va saqlash (52 ta) faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelgan.

# Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Savdo



416

Tashish va saqlash



52

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar



155

Qurilish



141

Sanoat



348

Axborot va aloqa



16

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish



17

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi



216

Boshqa turlari




182




# Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy qismi Navoiy shahri (312 ta), Karmana (229 ta), Qiziltepa (199 ta) va Xatirchi (178 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Aksincha Uchquduq (101 ta), Konimex (63 ta) hamda Tomdi (30 ta) tumanlarida korxonalar va tashkilotlarni tashkil etish ko'rsatkichi past darajani aks ettirgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar yillar kesimida



■ Korxonalar sonini o'sishi, birlikda



# Tijorat korxonalari

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

(2019-yil 1-may holatiga)


**Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar va tashkilotlar soni 10514 tani tashkil qildi.**

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni, birlikda


Mas'uliyati cheklangan jamiyati




Xususiy korxonona




Oilaviy korxonona




Unitar korxonona




Aksiyadorlik jamiyati



Boshqalar



# Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



141 ta

**Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy sarmoya ishtirokidagi korxonalar soni.**

**O'tgan yilning shu davriga nisbatan 46,8 % o'sgan.**

**Asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.**

2019-yil 1-may holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 141 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 75 taga yoki 46,8 % ga o'sgan. Ushbu korxonalarining asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Turkiya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Qozog'iston Respublikasi va Koreya Respublikasi hissalariga to'g'ri keladi.



# Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning davlatlar kesimida soni, birlikda





## Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarni yillar kesimida soni, birlikda






Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining 87 tasi qo'shma, 54 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.




Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni, birlikda



Hududlar kesimida, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Navoiy shahar 57 ta (jamidagi ulushi 40,4 %), Karmana 30 ta (21,3 %), Nurota 12 ta (8,5 %) tumanida hamda Zarafshon shahar 11 tani (7,8 %) tashkil etgan. Eng kam xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar Xatirchi 4 ta (2,8 %), Uchquduq 3 ta (2,1 %) va Tomdi 1 ta (0,7 %) tumanlarida tashkil etgan.




# Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni, birlikda



Ko'rinib turibdiki faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulush esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda tashish va saqlash faoliyat turlariga to'g'ri keladi.




# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar



## 1 Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar

2019-yilning yanvar-aprel oylarida xorijiy kapital ishtirokidagi yangi tashkil etilgan korxonalar soni 27 tani tashkil etgan.


Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 21 taga ko'paygan.



Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida - 5 ta, Xitoy Xalq Respublikasi - 5 ta, Eron Islom Respublikasi 3 ta, Janubiy Koreya Respublikasi - 3 ta, Amerika Qo'shma Shtatlari 2 ta, Qozog'iston Respublikasi 2 ta, Afg'oniston Respublikasi 1 ta, Vengriya Respublikasi 1 ta, Hindiston Respublikasi 1 ta, Tojikiston Respublikasi 1 ta, Turkiya Respublikasi 1 ta, Turkmaniston Respublikasi 1 ta, Isroil Davlatlarida 1 tadan korxonalar yangi tashkil etilgan.



# Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan 13 ta sanoat, 4 ta qurilish, 1 ta savdo, 5 ta qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 3 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

**(2019-yil 1-may holatiga)**



*2019-yil 1-may holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 10432 tani tashkil etgan. Bu ko'rsatkich o'tgan yilga nisbatan 29,9 % ga oshgan.*

*2019-yil yanvar-aprel oylarida 1479 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirilganda 786 taga ko'proqdir.*




•Kichik tadbirkorlik  
sub'ektlarining eng katta  
ulushi

•Kichik tadbirkorlik  
sub'ektlarining eng kichik  
ulushi



•Navoiy shahri  
19,8 %



•Navbahor tumani  
9,7 %




•Karmana tumani  
14,9 %



•Nurota tumani  
7,2 %



•Qiziltepa tumani  
12,8 %



•Uchquduq tumani  
6,6 %



•Xatirchi tumani  
12,0 %



•Konimex tumani  
4,0 %



•Zarafshon shahri  
11,0 %




•Tomdi tumani  
2,0 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 10432 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 2641 ta (25,3 %) – savdo, 2025 ta (19,4 %) - sanoat, 1092 ta (10,5 %) - qurilish, 1358 ta (13,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 998 ta (9,6 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi, 497 ta (4,8 %) - tashish va saqlash, 175 ta (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 136 ta (1,3 %) - axborot va aloqa sohasi, shuningdek, 1510 tasi (14,4 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



# Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Savdo

28,1 %



Sanoat

23,5 %



Qurilish

9,5 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

10,5 %



Tashish va saqlash

3,5 %



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi

14,5 %



Axborot va aloqa

1,1 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

1,1 %




Boshqa turlar

8,2 %



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'p savdo 416 ta, sanoat 347 ta, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 214 ta, qurilish 140 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasi 155 ta tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqa 16 ta, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmat ko'rsatish 17 ta hamda tashish va saqlashda 52 ta tashkil etilgan.

# Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni, birlikda




Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Navoiy shahri (293 ta), Karmana (221 ta), Qiziltepa (189 ta) va Xatirchi (178 ta) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi. Eng kam Tomdi (29 ta), Konimex (59 ta) hamda Uchquduq (98 ta) tumanlarida tashkil etilgan.




# Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda

1-may holatiga




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan




● Ro'yxatdan o'tgan ● Faoliyat ko'rsatayotgan  
● Yangi tashkil etilgan

## Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni hududlar kesimida soni, birlikda



# Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda ularning 24,8 % yoki 289 tasi sanoat, 21,3 % yoki 248 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 21,3 % yoki 248 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 19,5 % yoki 228 tasi savdo, 1,5 % yoki 18 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,2 % yoki 14 tasi qurilish, 1,0 % yoki 12 tasi tashish va saqlash, 0,9 % yoki 10 tasi axborot va aloqa hamda 8,5 % yoki 100 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Navoiy viloyati statistika  
boshqarmasi  
Statistik registrlarni yuritish bo'limi**

**Tel.:71-230-84-56**